

O‘RTA OSIYONI MUG‘ULAR TOMONIDAN BOSIB OLINISHI**Nosirov Abduvahob Vohidjon o‘g‘li**

Andijon davlat pedagogika instituti

Ijtimoiy- gumanitar va san'at fakulteti

Tarix yo‘nalishi 1- bosqich 102- guruh talabasi

Anotatsiya: *O‘rta Osiyoning Mug‘ullar tomonidan bosib olinishi, XIII asrda yuzaga kelgan muhim tarixiy hodisalardan biridir. 1206 yilda Chingizxon tomonidan tashkil etilgan Mug‘ul imperiyasi tezda kengayib, o‘z davrida eng kuchli davlatlardan biriga aylandi. Bu bosib olish O‘rta Osiyo, Xuroson, Eronda keng tarqaldi va ko‘plab shaharlarga, jumladan Samarqand, Buxoro va Jandaga hujumlar uyushtirildi. Mug‘ullar o‘z hukmronliklarini mahkamlagan holda, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy sohalarida o‘z izlarini qoldirdilar. Ushbu davrning ta’siri nafaqat geografik hududlar, balki xalqning hayoti va rivojlanishiga ham ta’sir ko‘rsatdi. Anotatsiya, shu bilan birga, bu hodisalar natijasida sodir bo‘lgan ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy o‘zgarishlarni ham ko‘rsatib o‘tadi.*

Anatation: *The Mongol conquest of Central Asia is one of the most significant historical events of the 13th century. Established in 1206 by Genghis Khan, the Mongol Empire expanded rapidly, becoming one of the most powerful states of its time. This conquest spread across Central Asia, Khwarazm, and Iran, with numerous cities, including Samarkand, Bukhara, and Jand, coming under attack. The Mongols, while consolidating their rule, left a profound impact on the economic, social, and cultural aspects of the regions they controlled. The effects of this period were felt not only in geographical areas but also in the daily lives and development of the local populations. The abstract also highlights the social, economic, and cultural changes that occurred as a result of these events.*

Аннотация: *Завоевание Центральной Азии монголами является одним из важнейших исторических событий XIII века. В 1206 году Чингисхан основал Монгольскую империю, которая быстро расширялась и стала одним из самых мощных государств своего времени. Это завоевание охватило Центральную Азию, Хорезм и Иран, при этом было атаковано множество городов, таких как Самарканд, Бухара и Джанд. Монголы, укрепив свою власть, оставили*

глубокий след в экономической, социальной и культурной жизни захваченных территорий. Влияние этого периода ощущалось не только в географических областях, но и на повседневной жизни и развитии местных народов. Аннотация также подчеркивает социальные, экономические и культурные изменения, произошедшие в результате этих событий.

Kalit so‘zlar: O‘rta Osiyo, Mug‘ullar, Chingizxon, bosib olish, Samarqand, Buxoro, Madaniy ta‘sir, iqtisodiy o‘zgarishlar, ijtimoiy ta‘sir.

Keywords: Central Asia, Mongols, Genghis Khan, conquest, Samarkand, Bukhara, Cultural influence, economic changes, social impact.

Ключевые слова: Центральная Азия, монголы, Чингисхан, завоевание, Самарканд, Бухара, культурное влияние, экономические изменения, социальное воздействие.

Kirish: XIII asr o‘rtalarida Yevropa va Osiyo tarixini tubdan o‘zgartirgan, dunyoning eng keng tarqalgan imperiyalaridan birining — Mongol imperiyasining tashkil topishi va uning O‘rta Osiyoga bosib kirishi katta ta‘sir ko‘rsatdi. 1206 yilda Chingizxon tomonidan asos solingan bu imperiya qisqa vaqt ichida kengayib, o‘z hududlarini osuda va doimiy ravishda yengib o‘tdi. O‘rta Osiyo, uning strategik joylashuvi va qadimiy shaharlarining boy madaniy merosi, Mongollar uchun katta ahamiyatga ega edi. Samarqand, Buxoro, Jand kabi shaharlar va ularning atrofidagi yurtlar, o‘zining iqtisodiy va madaniy rivojlanishida yuqori darajaga erishgan bo‘lsa-da, Mongol yurishlari natijasida kuchli talonchilik va halokatga uchradi.

Bu maqolada O‘rta Osiyo mintaqasining Mug‘ullar tomonidan bosib olinishi jarayoni, uning tarixiy sabablari va natijalari o‘rganiladi. Bosib olishning ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy oqibatlari, shuningdek, bu davrda yuzaga kelgan siyosiy o‘zgarishlar tahlil qilinadi. Mug‘ul bosqinlarining O‘rta Osiyodagi ta‘siri nafaqat qisqa muddatli yovuzlik va halokat bilan cheklangan, balki uzoq muddatli rivojlanish jarayonlariga ham katta ta‘sir ko‘rsatdi. Shuningdek, bu davrda mongol hukmronligining O‘rta Osiyo xalqlari va madaniyatlariga bo‘lgan ta‘siri chuqur o‘rganilishi lozim.

XII asr oxirlariga kelganda Mo‘g‘ulistonda yashovchi turli qabila va urug‘lar o‘rtasida siyosiy kurashlar avj olgan edi. Ularda ayniqsa urug‘-aymoqchilik munosabatlari kuchli bo‘lib, asosan ko‘chmanchi chorvachilik, ovchilik va mol

ayirboshlash bilan kun kechirar edilar. 1155 yilda tug‘ilgan Temuchin 1206 yilda Onon daryosi buyida maxsus chaqirtirilgan qurultoyda Temuchin butun Mug‘ulistonning Hoqoni deb e‘lon qilindi va shu bilan Mo‘g‘ullar istilosi boshlandi. 1207-1208 yillarda Enasoy (Enisey) havzasi, Ettisuv viloyatining shimoliy qismi bosib olinib, u erdagi uyg‘urlar ham to‘liq buysundirildi. 1209 yilda Chingizxon Xitoyning shimoli-sharqiydagi Tongg‘ut mamlakatiga hujum qilib, katta o‘lja va ko‘plab odamlarni qul qilib, Mo‘g‘ulistonga olib ketdi. 1211-1215 yillar davomida esa avval Xitoyga hujum qilib, qudratli Tszin armiyasiga qattiq zarbalar berdi, so‘ngra esa Pekin shahrini ishg‘ol qildi. Tszin sulolasi ag‘darilib, Shimoliy Xitoy Mo‘g‘ullar davlatiga qo‘shib olindi. Mo‘g‘ulistonda qudratli davlatni tashkil qilgan Chingizxon o‘z e‘tiborini endi Markaziy Osiyo tomonga qarata boshladi. Xorazmshohlar davlati Oloviddin Muhammad podsholik qilgan davrida (1200-1220) Samarqand va O‘trorni qoraxoniylardan tortib oladi, uzoq G‘aznagacha (Afg‘oniston janubi) o‘z chegarasini kengaytirib, G‘arbiy Eron va Ozarbayjonni bo‘ysundiradi.

Dashti Qipchoqning ichkari hududlariga kirib boradi. Ma‘lumotlarga ko‘ra, 25 dan ortiq mamlakat unga qaram bo‘lgan. Shu tufayli Oloviddin Muhammad erishilgan ulkan yutuqlardan ortiqcha kibrlanib, o‘zini “Iskandari Soniy”, ya‘ni ikkinchi Iskandar deb e‘lon qiladi. Mo‘g‘ullar istilosi arafasida Xorazmshohlar davlatida asli ikki hokimlik o‘rnatilgan edi desak, mubolag‘a bo‘lmaydi. Mamlakat shohi Oloviddin Muhammad hisoblansada, ichki va tashqi siyosatni olib borishda ikkinchi hokim shohning onasi Turkon xotun hisoblangan. Oloviddin Tekesh vafotidan so‘ng Turkon xotun endi davlat va boshqaruv ishlariga har tomonlama, to‘liq aralasha boshlagandi. Mo‘g‘ullar istilosi arafasida mamlakatning tushkunlikka va tang ahvolga kelgan edi. Chingizxon va Oloviddin davlatlarining elchilari savdo karvonlari saflarida bir birlariga borib, ayni vaqtda turli, kerakli ma‘lumotlar to‘plab, ayg‘oqchilik vazifalarini ham bajarardilar. Mo‘g‘ullarning Xorazmshohlar davlatining istilosi arafalarida ikki yirik tarixiy shaxs, hukmdorlar o‘rtasida bir-birini har tomonlama o‘rganishga mo‘ljallangan ana shunday munosabatlar bo‘lib turgan edi. Mo‘g‘ul istilochilarining Turon zaminga harbiy yurishlari.

1. Barthold, V.V. *O‘rta Osiyo tarixi bo‘yicha asarlar to‘plami*. Toshkent: Fan, 1993.

Oloviddin Muhammadning harbiy xatosi, uning oqibatlarini. Xorazmshoh bilan shartnoma tuzilganidan ko'ngli to'q bo'lgan Chingizxon Pekindan xorazmshohlar davlatiga Umar hoji al-O'troriy, al-Jamol al-Marg'oni, Faxriddin al-Buxoriy boshchiligida 450 ta musulmon savdogarlardan iborat, har qabilasidan 2-3 tadan vakil bo'lib, ular Xorazm mamlakatidagi noyob mollarni Mo'g'iliston uchun tanlash, xarid qilish ishlari bilan shug'ullanishlari lozim edi. Ayni vaqtda, Xorazmshoh davlatiga kelgusida harbiy yurishlar uchun ma'lumot to'plash maqsadida yuborilgan kishilar ham bo'lishi mumkinligi ehtimoldan holi emasdi. Tarixchi Nasaviyning yozishicha, karvon O'tror shahriga etib kelganida shahar hokimi, Turkon xotunning amakivachchasi Inolchiqxon (asl ismi G'oyirxon) undagi qimmatbaho mollarni ko'rib, ochko'zligi avj olib, niyati buzilib, Xorazmshohga karvondagilar o'zlarini josusdek tutayaptilar deb shoshilinch xabar yuboradi. Xorazmshoh hokimga karvonni mamlakat ichkarisiga kiritmay, to'xtatib turish haqida buyruq yuboradi. Lekin Turkon xotun himoyasiga ishongan Inolchiq katta fojeaga qo'l uradi, ya'ni, uning buyrug'i bilan karvon qo'lga olinadi, barcha savdogarlar va boshqa kishilar qatl etiladi. Karvondagi mollarning bari musodara qilinadi. Tasodif tufayli tirik qolgan bir tuyakash Chingizxon huzuriga etib borib, fojea haqida unga xabar berishga muvaffaq bo'ladi. Chingizxon va Xorazmshohlar davlati o'rtasidagi urush 1219 yilda boshlandi. Mo'g'ul istilochilari juda katta kuch va shijoat bilan O'trojni egallashga oshiqdilar. O'tror qamali 5 oydan ortiqroq davom etgan va uning himoyasida 80 mingdan ortiqroq askarlar ishtirok etgan.

1219-1221 yillar davomida qaqshatgich urushlar natijasida mug'ul qushinlari Xorazmshohlar davlatini deyarli barcha erlarini zabt etdilar. Xorazmshohning o'g'li Jaloliddin 1221-1231 yillar davomida Chingizxon va uning qushinlariga qattiq qarshilik ko'rsatib ko'p talofat etkazdi. Jaloliddin Mayofarikin yaqinidagi Ayndar nomli qishloqqa etib kelganda kurd qaroqchilari qo'lga tushadi. Kurdlar uning bor narsasini olib qo'yadilar. Ularning boshlig'i Jaloliddinni bir uyga qamab, soqchi tayinlab ketadi. Shu paytda bir kurd bu voqeadan xabar topib, Jaloliddin turgan uyga keladi. Bu kishining birodari Hilot qamalida xorazmiylar tomonidan o'ldirilgan bo'lib, u o'ch olish payida yurgandi. Soqchining qarshiligiga qaramay, kurd hech qanday qurolsiz Jaloliddinga nayza sanchib o'ldiradi. Shuncha yillar suronli, tengsiz janglarda, beqiyos jasorat ko'rsatib, ulardan omon chiqqan tengi yo'q bohodir

Jaloliddinning hayot yo'li shu tariqa shuhratsiz tugaydi. Bu voqea 1231 yili 17-20 avgust o'rtalarida sodir bo'lgan edi.

Movarounnahr, Xuroson va Xorazmga qilingan yurishga shaxsan Chingizxonning o'zi boshchilik qildi. Chingizxon 1218 yili qoraxitoy Kuchluk davlatini tugatgach, uning davlati chegaralari bevosita Xorazmshohlar davlati bilan tutashdi. Urushning asosiy bahonasi 1218 yili mo'g'ullar savdo karvonining O'trorda talanib, 400 nafar savdogar (yoki josus)ning qatl etilishi edi.

1219 yil kuzida Chingizxon 200 mingdan ortiq askari bilan O'rta Osiyoga yurish boshladi. Xorazmshoh A'loiddin Muhammad mo'g'ullarga qarshi urushda asosiy kuchlarni jamlab yirik jang olib borishdan qochdi. U o'ziga tobe barcha shahar va qal'alarga o'zlarini himoya qilish haqida buyruq berdi. Chingizxon bundan allaqachon xabardor bo'lgandi, O'trorga etganda xorazmshohlar mulkini tezda bosib olish uchun qo'shinini 4 qismga ajratdi. Birinchi qo'shinga o'g'illari Chig'atoy va O'qtoyni boshliq etib tayinladi, ularga O'tror shahrini yo'q qilish topshirildi. Ikkinchi qo'shinga boshqa o'g'li Jo'jini boshliq etib tayinladi, unga Sirdaryo bo'yidagi Sig'noq, O'zgan, Barchinlig'kent, Jand, Yangikent va boshqa shaharlarni istilo qilishni topshirdi. Uchinchi qo'shinga Oloq no'yon va Suketu cherbilarni boshliq bo'lib, ularga Xo'jand va Binokat shaharlarini bo'ysundirish buyurildi. To'rtinchi qism esa Chingizxonning o'zi boshchiligida sahrodan Buxoro tomon yo'lga tushdi.

Chig'atoy va O'qtoy boshliq birinchi qushin 1219 yil sentyabr – 1220 yil mart oralig'ida O'tror shahrini qamal qildi. Mo'g'ullar shaharni vayron qilib, hokim Qoirni asirga tushirishdi. U 1218 yildagi mug'ul savdogarlarini o'ldirishda ayblangani uchun, Samarqandga - Chingizxon huzuriga yuborildi. Chingizxonning buyrug'i bilan qiynab o'ldirildi.

Io. Qosimova, D. O'rta Osiyoda mo'g'ullar bosqini va uning oqibatlari.

Toshkent: Ilm ziyo, 2012.

1220 yil fevralda Chingizxon Buxoroga etib keldi va shahar qamalini boshladi. Shaqar 7 – 10 fevral kunlari qamal qilindi.

16 fevral kuni himoyasiz qolgan Buxoro ahli mo'g'ullarga taslim bo'ldi. Lekin Go'rxon boshliq himoyachilar Buxoro arkini yana 12 kun mudofaa qilib turdilar. Mo'g'ullar Buxoroga o't qo'yib kulini ko'kka sovurishdi, minglarcha tinch aholini qirg'in qilishdi va ko'plab kishilarni qulga aylantirishdi.

Chingizxon Buxorodagi xunrezligi bilan nom chiqargach 1220 yil martda Samarqandni talash uchun yurish boshladi. Bir necha kunlik janglardan so'ng shahar mo'g'ullarga taslim bo'ldi. Tog'ayxon boshliq 30 ming kishilik qo'shin Chingizxon xizmatiga o'tishga rozilik bildirdi, lekin tunda Tog'ayxon, uning 20 nafar sarkardasi va 30 ming kishilik qo'shini ayovsiz qirib tashlandi. Buxoro kabi Samarqand shahri ham o't ichida qoldi, minglab kishilar vahshiy mo'g'ullar tomonidan qirib tashlandi, o'n minglab kishilar esa qul qilib haydab ketildi.

Mo'g'ullarning ikkinchi qo'shini Sig'noqni etti kun qamal qilib qo'lga kiritdi, boshqa erlarda bo'lgani kabi, Sig'noq aholisi ham qatli om etildi. Samarqand talanganidan bir oy o'tgach, 1220 yil aprelda, mo'g'ullar Jand shahriga yurish boshladi. Jo'ji boshliq qushin Jandni egallab, u erda ham katta qirg'in uyushtirdi.

1220 yil martda mo'g'ullarning uchinchi qo'shini Binkatga hujum qildi, shahar 4 kunlik qamaldan so'ng taslim bo'ldi, mo'g'ullar odatlari bo'yicha bu erdagi aholini ham qirib tashlashdi. Aprelda Xo'jandni istilo qilishga kirishishdi. Uch oylik qamaldan so'ng Temurmaliq boshliq qo'shin Xo'jandni tashlab Sirdaryo o'rtasidagi orolga borib joylashdi. Mo'g'ullar Xo'jandni bosib olishgan bo'lsada, orolchadagi askarlar yana to'rt oy mobaynida ularga qattiq qarshilik ko'rsatdi. Mo'g'ullar bu ahvolda ularni engish imkonsizligini anglab, daryoga to'g'on qurib orolni suv bilan bostirishga harakat qilishdi. To'g'on muljallangan joyga etgach, Temurmaliq askarlarini olib oralchani tark etishga majbur bo'ldi. Mug'ullar Temurmaliqni tirik tutish maqsadida Sirdaryoning Binkat shahri ro'parasidagi joyiga daryo eni bo'ylab zanjir tortib chiqishgandi. Tunda yo'lga chiqqan Temurmaliqning oz sonli qo'shini zanjir tortib qo'yilgan erga kelganda zanjirni uzib yo'lida davom etdi. Mug'ullarning bir necha oy mobaynida qilgan ishi chippakka chiqdi. Temurmaliq Jand shahriga etganda quruqlikka chiqishga majbur bo'ldi. Bu erda uni kutib turgan Mug'ullar bilan hal qiluvchi jangga kirishdi. Mazkur jangda Temurmaliq barcha safdoshlaridan ayrildi, faqat bir necha kishi bilan hali mo'g'ullar qadami tegmagan Urganchga etib oddi.

Chingizxon askarlariga bir muddat dam bergach Naxshabga yurish boshladi. Shahar jangsiz taslim bo'ldi. Yozni Naxshabda o'tkazishib, u erda talonchilik, aroqxo'rlik, giyohvandlik va boshqa fisqu fujur ishlar bilan shugullanishdi. Kuzda esa Termizga yurish boshlashdi. Termiz 11 kun qarshilik ko'rsatgach mo'g'ullar

tomonidan bosib olindi. Mo'g'ullar 1220 yili Movarounnahrni to'la istilo qilishdi, endi Xorazmshohlar davlati poytaxti Urganchni vayron qilishni ko'zlashardi.

Qosimova, D. O'rta Osiyoda mo'g'ullar bosqini va uning oqibatlari. Toshkent: Ilm ziyo, 2012.

Chingizxon o'gillari Chig'atoy, O'qtoy va Jo'ji boshliq barcha kuchni birlashtirib Xorazmni bosib olish uchun harakat boshladi. 1220 yil dekabrda Urganchdan qochib ketgan xorazmshoh A'loddin Muhammad Kaspiy dengizidagi Ashur orolida xor-zor bo'lib o'lib ketdi. Uning o'rniga katta o'g'li Jaloliddin taxtga chiqarilgandi, boshqa o'g'illari esa xazinani talon-toroj qilib gado topmas erlarga qochib qolishdi. 1220 yil oxirlarida mo'g'ullar Urganch qamalini boshladi.

5 oy davom etgan qamal va tinimsiz janglardan so'ng shahar istilo qilindi. Mo'gullarga qarshi janglarning birida 72 yoshli Shayx Najmiddin Kubro shahid bo'ldi. Mo'g'ullar qonxo'rliklarini bu erda ham isbotlashdi. Aholining bir qismi qulga aylantirildi, Urganch esa suvga bostirildi.

Mo'g'ullar 1221 yil 5 fevralda Marvni olishgach Hirot, Balx va G'aznaga yurishni rejalashtirdilar. Biroq 1221 yil yozida Jaloliddin Manguberdi Parvona jangida Shiki Kutuhu boshliq 45 ming kishilik mo'g'ul qo'shinini tor-mor keltirdi, bu mo'g'ullarning shu paytgacha uchragan eng katta mag'lubiyati edi. 1221 yil kuzda Chingizxonning o'zi Jaloliddin o'rnashgan G'aznaga yurish boshladi. 1221 yil noyabrda Hind daryosi bo'yida yuz bergan jangda son jihatdan ancha ustun bo'lgan mo'g'ullar g'alaba qozondi. Baribir Jaloliddinni asirga tushirolmadilar, u 4 ming askari bilan Hind daryosining narigi tomoniga o'tib olishga erishdi. Jaloliddin umrining oxirigacha (1231) mo'g'ullarga qarshi kurashdi.

Xulosa: O'rta Osiyoning Mo'g'ullar tomonidan bosib olinishi nafaqat bu mintaqa, balki butun islom olami va Sharq sivilizatsiyasi uchun keskin burilish nuqtasi bo'ldi. Chingizxon boshchiligidagi yurishlar natijasida qadimiy shaharlar vayronaga aylantirildi, iqtisodiy va madaniy taraqqiyot jiddiy to'xtab qoldi, ko'plab ilm-fan markazlari yo'q qilindi. Biroq bu halokatli bosqindan keyingi davrda, Mongollar o'z hukmronligini mustahkamlab, ayrim hollarda iqtisodiy barqarorlikni tiklashga va madaniy almashinuvga ham turtki bo'lishgan.

Shu sababli, Mo'g'ul bosqinlari faqatgina harbiy va siyosiy yutuqlar doirasida emas, balki ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy oqibatlari bilan ham o'rganilishi lozim. Ularning O'rta Osiyo tarixiga ta'siri uzoq muddatli bo'lib, keyingi asrlarda bu

mintaqada yuzaga kelgan siyosiy tuzilmalar, xalqaro aloqalar va madaniy o‘zgarishlar uchun muhim zamin yaratdi. Tarixiy saboq sifatida, bu davr bizga tinchlik va barqarorlikning qadri, bilim va madaniyatning nozikligi hamda har qanday istilolarning uzoq davom etadigan oqibatlari haqida chuqur xulosa chiqarishga undaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

2. Barthold, V.V. *O‘rta Osiyo tarixi bo‘yicha asarlar to‘plami*. Toshkent: Fan, 1993.
3. Qayumov, A. *Chingizxon va uning zamonasi*. Toshkent: O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2001.
4. Allambergenov, T., & Muminov, I. *O‘rta Osiyo tarixidan lavhalar*. Toshkent: O‘qituvchi, 1985.
5. Morgan, D. *The Mongols*. Oxford: Blackwell Publishing, 2007.
6. Man, J. *Genghis Khan: Life, Death, and Resurrection*. London: Bantam Press, 2004.
7. Boyle, J.A. (Ed.). *The Cambridge History of Iran, Vol. 5: The Saljuq and Mongol Periods*. Cambridge: Cambridge University Press, 1968.
8. A. Mirzayev, S. *O‘zbekiston tarixi: qadimgi davrdan XIV asrgacha*. Toshkent: O‘zbekiston, 2000.
9. Ratchnevsky, P. *Genghis Khan: His Life and Legacy*. Oxford: Blackwell, 1991.
10. Qosimova, D. *O‘rta Osiyoda mo‘g‘ullar bosqini va uning oqibatlari*. Toshkent: Ilm ziyo, 2012.
11. *The Secret History of the Mongols: The Life and Times of Chinggis Khan*. Translated by Urgunge Onon. Curzon Press, 1993.